



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№4

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

4-jild
4-son
Aprel, 2026

April, 2026
Volume 4
Number 4

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА**
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

immoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori bilan** milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруззода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Ekonometrika va statistika
Econometrics and statistics
Эконометрика и статистика



HUDUDLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI

Buriyev Sherzod Ahadovich

МОДЕЛИ И КРИТЕРИИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕГИОНАХ

Бурьев Шерзод Ахадович

MODELS AND CRITERIA FOR THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN REGIONS

Buriyev Sherzod Ahadovich

Received: April 8, 2026 Revised: April 12, 2026 Accepted: April 19, 2026 Published: May 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning zamonaviy modellari va ularni baholash mezonlari tahlil qilinadi. Mavzu doirasida hududlarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishining asosiy modellari guruhlanib, ularning tanlovi hududning iqtisodiy ixtisoslashuviga, aholi soniga va infratuzilma darajasiga bog'liqligi aniqlandi. Regression tahlil natijalariga asoslanib Qashqadaryo viloyatida sohani rivojlantirishga eng muhim omillar ta'siri aniqlandi va tumanlarda istiqbolli modellarni amalga oshirish tavsiyasi ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: hudud, yalpi hududiy mahsulot, xizmat ko'rsatish, omil, rivojlanish modeli, mezon, regression tahlil.

Annotation. This article analyzes modern models for developing the service sector in regions and the criteria for their evaluation. Within the scope of the topic, the main models of service sector development in regions are classified, and it is determined that their selection depends on the region's economic specialization, population size, and level of infrastructure development. Based on the results of regression analysis, the most significant factors influencing the development of the sector in the Kashkadarya region were identified, and recommendations were developed for the implementation of promising models in districts.

Keywords: region, gross regional product, service sector, factor, development model, criterion, regression analysis.

Аннотация. В данной статье анализируются современные модели развития сферы услуг в регионах и критерии их оценки. В рамках исследования классифицируются основные модели развития сферы услуг в регионах, а также установлено, что их выбор зависит от экономической специализации региона, численности населения и уровня развития инфраструктуры. На основе результатов регрессионного анализа определены наиболее значимые факторы, влияющие на развитие сферы услуг в Кашкадарьинской области, и разработаны рекомендации по внедрению перспективных моделей в районах.

Ключевые слова: регион, валовой региональный продукт, сфера услуг, фактор, модель развития, критерий, регрессионный анализ.

■ KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning salmoqli qismini tashkil qiladi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar YAIMda xizmatlar ulushi 60-70% ga etadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsiyalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir".

Mamlakatimizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Hududlarda xizmat ko'rsatish ulushini oshirish orqali aholi bandligini ta'minlashga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan 2025 yilda xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish, sohada 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash hamda 52,2 mingta xizmat ko'rsatish obektlarini tashkil etish belgilandi. Bu maqsadlarga erishish uchun hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirishga 67,4 trillion so'm miqdorida kredit mablag'lari hamda Davlat budjetidan 1 trillion so'm yo'naltirish ko'zda tutildi [1]. Shu nuqtayi nazardan xizmat ko'rsatish sohasining mintaqaviy rivojlanish omillari va uni baholash mezonlarini ilmiy tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.



MAVZUNI O'RGANILGANLIK DARAJASI

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish masalalari xalqaro va milliy iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Filipp Kotler o'zining ilmiy ishlarida talab va iste'molchilarning xulq-atvori xizmatlar bozorini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha: "Xizmatlar sifati va mijozlarning qoniqishi bozordagi raqobatbardosh ustunlikni belgilaydi"[2].

Shuningdek, Kristofer Lovelok xizmatlar marketingi nazariyasida infratuzilma va xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etishni asosiy omil sifatida ko'rsatadi va "xizmat ko'rsatish tizimining samaradorligi uning logistikasi va mijoz bilan o'zaro ta'siriga bog'liq" deb hisoblaydi [3].

Pol Krugman xizmat ko'rsatish sohasining mintaqaviy rivojlanishdagi rolini makroiqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilib "Iqtisodiy faoliyatning konsentratsiyasi xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi" deb baholaydi [4].

Xizmatlar sohasini rivojlantirish masalalari ko'plab MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan ham o'rganilmoqda. Xususan, MDH olimlaridan M.Savlov Rossiya va Ozarbayjonda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilgan holda, uning iqtisodiy o'sish va bandlikdagi muhim rolini asoslaydi hamda sohaning rivojlanish tendensiyalari va hududiy farqlar tahlil qiladi [5]. N. Alekseyeva va K.Smironalari


xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushini, uning tarkibiy o'zgarishlarini, raqamlashtirish va innovatsiyalar ta'sirida transformatsiya jarayonlarini o'rganib, xizmat ko'rsatish bozorining dinamikasiga davlat siyosatining ta'siri tahlil qilinadi [6]. Q. Mirzayev va M. Jonuzakov xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirish mexanizmlari va sohani rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhimligini asosladilar [7]. G. Ernazarov o'z tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotda xizmatlar sektorining ahamiyati va rivojlanish istiqbollari o'rganadi [8]. S.To'rabekov hamda boshqa qator mualliflar o'z tadqiqotlarida asosan xizmatlar sektorini kichik biznesni rivojlantirish orqali milliy va hududiy darajada bandlikni oshirish masalalariga o'z e'tiborini qaratadilar [9,10].

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik usullar, tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanildi. Tadqiqot manbalari sifatida Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESD) va O'zbekiston Respublikasi Statistika milliy statistika qo'mitasi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari qo'llanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasining mintaqaviy rivojlanishi bir nechta asosiy modellarga asoslanganligi, ularning tanlovi hududning iqtisodiy ixtisoslashuviga, aholi soniga va infratuzilma darajasiga bog'liqligi aniqlandi.



1-chizma. Hudlarni rivojlantirishning asosiy modellari⁵².

⁵² Muallif ishlanmasi



Innovatsion model ko'proq rivojlangan mintaqalar va yirik shaharlarga xos bo'lib, u axborot texnologiyalari, raqamli platformalar yaratish, moliyaviy konsalting kabi yuqori texnologiyali xizmatlarini ko'rsatish rivojlanadi. Turistik- rekreatsion model asosan noyob va o'ziga xos tabiiy hamda tarixiy-madaniy resurslarga ega bo'lgan hududlarga xosdir. Transport logistika modeli ko'proq chegara oldi transport yo'laklariga ega bo'lgan hududlarda qo'llaniladi. Ijtimoiy model aholining birlamchi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa davlat tomonidan kam rivojlangan va olis hududlarni qo'llab quvvatlanishini nazarda tutadi [11]. "Agroservis" modeli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan tortib, iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha qo'shimcha xizmatlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy tizimdir.

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy tahlili shuni ko'rsatdiki, bu yerda asosan an'anaviy model (savdo va transport xizmatlarining umumiy ulushi 60% dan ortiq) ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Regression tahlil natijalariga ko'ra sohani rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillar - urbanizatsiya darajasi (43%) va aholining real daromadlarining o'sishi (35%) sifatida aniqlandi [12]. Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining ekonometrik tahlili shuni ko'rsatdiki, soha dinamikasi asosan ikkita asosiy omil ta'sirida shakllanadi. Regressiya modeli natijalariga k'ra:

Birinchi, urbanizatsiya omili (43%) xizmatlar hajmining osishining asosiy manbai hisoblanadi. Qarshi shahar va tuman markazlarining kengayishi, shahar tipidagi aholi punktlarida aholining zichligi xizmat korsatish infratuzilmasiga bolgan talabni tabiiy ravishda oshiradi. Ushbu 43 foizlik korsatkich soha rivojlanishida urbanizatsiya darajasining hissasi, ya'ni elastiklik koeffitsienti ($E=0.43$) yuqoriligini korsatadi.

Ikkinchi, aholining real daromadi (35%) sohaning oo'sishini ta'minlovchi keyingi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotda "Keyns qonuni"ga ko'ra, daromadlarni oshishi xizmatlarga bo'lgan talabni rag'batlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqa aholisi daromadlarining har 1 foizga o'sishi xizmat ko'rsatish sohasining o'rtacha 0,8 foizga kengayishiga olib keladi, bu esa umumiy soha o'sishining 35 foizi bevosita daromad omili bilan determinatsiyalanganligini tasdiqlaydi.

■ MUHOKAMA

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish maqsadida mintaqaning tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan bir qator istiqbolli modellarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, qishloq xo'jaligi salohiyati yuqori bo'lgan Qamashi, Chiroqchi va Kitob tumanlarida "Agrologistika modeli"ni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va bozorlarga yetkazib berish infratuzilmasini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Bu mahsulot qiymat zanjirini kengaytirish va qo'shimcha qiymatni oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, Shahrisabz va Kitob tumanlarining boy tarixiy, madaniy va tabiiy resurslariga asoslangan "Turizm xizmati modeli"ni shakllantirish, xususan, qishloq va ziyorat turizmi klasterlarini yaratish mintaqaga mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi. Bu yo'nalish xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil bo'ladi.

Qarshi shahrida zamonaviy iqtisodiyot talablariga asoslangan innovatsion rivojlanish modeli asosida ta'lim va axborot texnologiyalari xizmatlarini eksport qilishga ixtisoslashgan markazlarni rivojlantirish ustuvordir. Bu inson kapitali salohiyatini va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni kuchaytiradi.

Ta'kidlash joizki, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchaytirilishi, jumladan, soliq stavkalarini 1 foiz darajasida belgilash kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faolligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, mintaqada kichik biznes sub'ektlari sonining yillik 12-15 foizga o'sishiga erishish mumkin.

■ XULOSA

Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish faqat savdo bilan cheklanib qolmasligi kerak. Hozirgi vaqtda viloyatda xizmatlar sohasini o'sish sur'ati o'rtacha 14-155ni tashkil qilib, 2025 yilda uning YAHMdagi ulushi 43,1%ni tashkil qildi. Mintaqaviy modelni "texnologik va ijtimoiy xizmatlar" yo'nalishiga aylantirish orqali sohaning YaIMdagi ulushini 2026 yilda 45,5-46 %gacha yetkazish hamda yiliga 2,4-2,9 % punktga o'sishiga zamin yaratadi. Bu mintaqada qo'shimcha 45-50 mingta ish o'rinlari yaratishni anglatib, hududdagi ishsizlik darajasini kamida 1,5-2 foiz pasaytirishga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Buriyev Sherzod Ahadovich Qarshi DU mustaqil tadqiqotchisi / Буриев Шерзод Ахадович Независимый исследователь Каршинского государственного университета / Buriyev Sherzod Ahadovich

E-mail: shahrisabz7070@gmail.com

ORCID: 0009-0007-8152-5253

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.02.2025 yildagi PQ-78-son.
2. Philip Kotler, Keller, K. Marketing management (15th ed.). London: Pearson Education. 2016, R.-720
3. Christopher Lovelock, Wirtz, J. Services Marketing: People, Technology, Strategy (8th ed.). World Scientific Publishing Co, 2016, pp. 54-78.
4. Paul Krugman P. R. Geography and Trade. - Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1991. - 142 p.
5. Савлов М. Е. Сфера услуг: ключевые особенности России и Азербайджана // RUDN Journal of Economics. - 2019. - T. 27, №1. - С. 18-34.



6. Алексеева Н. И., Смирнова К. Д. Современные тенденции развития сферы услуг в Российской Федерации // Экономические исследования. – 2023. – №2 (30). – С. 164–176.

7. Q.Mirzayev, M. Jonuzakov. Xizmatlar sohasi samaradorligi va uni oshirish yo‘llari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024. 2(2), 479–485 b.

8. Ernazarov, G. (2025). O‘zbekistonda xizmatlar sohasi, uning iqtisodiy-statistik tahlili va istiqbollari. Ilg‘or Iqtisodiyot Va Pedagogik Texnologiyalar, 2(3), 866–872.

9. S. To‘rabekov. O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish imkoniyatlari. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2025, 3(4), 417–424.

10. Tursunov, I., Erkaeva, G., Iskandarov, E., Berdiev, A., Khamroev, G. Territorial development of innovation activities of small and medium businesses. In AIP Conference Proceedings .2025, September Vol. 3290, No. 1, p. 030018. AIP Publishing LLC.

11. Erkayeva, G., & Vayskulov, R. (2022). Turizm salohiyatini rivojlantirishda mobil innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llari. Economics and Innovative Technologies, 10(5), 348-356.

12. O‘zbekiston Respublikasi Statistika milliy statistika qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz